



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / AVGUST / 8-SON,
I-QISM**

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI.....	20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi	
Jalg'ashova Nazira Umbet qizi	
MINTAQADA SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich	



MINTAQADA SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

Mamedov Ko'palboy Masharipovich
«InFinBank» AJ Xorazm viloyat filiali
Bosh buxgalteri
Email: k.mamedov@infinbank.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston mintaqalarida sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligining hozirgi holati tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi so'nggi yillardagi statistik ma'lumotlar asosida mintaqaviy sanoat tarkibini, uning texnologik darajasini hamda ishlab chiqarish hajmi dinamikasini baholash, shuningdek, samaradorlikni pasaytiruvchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik tahlil va jadval-grafik usullaridan foydalanilgan bo'lib, ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, hududiy statistika boshqarmalari hamda so'nggi besh yil mobaynida chop etilgan xalqaro ilmiy nashrlar tanlab olingan.

Kalit so'zlar: sanoat salohiyati, mintaqaviy iqtisodiyot, samaradorlik, qayta ishlash sanoati, texnologik daraja, investitsiya, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the current state of the efficiency of industrial potential utilization across the regions of Uzbekistan. The objective of the study is to evaluate the regional industrial structure, its technological level, and the dynamics of industrial output based on recent statistical data, as well as to identify the factors limiting efficiency. The research employs comparative analysis, statistical grouping, dynamic analysis, and tabular-graphical methods. The study is based on data obtained from the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, regional statistical offices, and international scientific publications published over the past five years.

Keywords: industrial potential, regional economy, efficiency, manufacturing industry, technological level, investment, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье проанализировано современное состояние эффективности использования промышленного потенциала регионов Узбекистана. Цель исследования заключается в оценке региональной структуры промышленности, её технологического уровня и динамики объёмов производства на основе статистических данных последних лет, а также в выявлении факторов, снижающих эффективность. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, статистической группировки, динамического анализа, а также таблично-графические методы. В качестве источников информации использованы данные Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, территориальных органов статистики и международных научных публикаций, изданных за последние пять лет.

Ключевые слова: промышленный потенциал, региональная экономика, эффективность, обрабатывающая промышленность, технологический уровень, инвестиции, Узбекистан.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida mamlakat va uning alohida hududlari raqobatbardoshligini ta'minlashda sanoat salohiyatidan samarali foydalanish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat tarmog'i nafaqat yalpi ichki mahsulot va eksport hajmini oshirishning asosiy manbai, balki innovatsion rivojlanish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, o'tish iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mintaqaviy sanoat salohiyatini to'g'ri baholash va undan oqilona foydalanish strategiyasini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan [1]. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sanoat sohasini rivojlantirish, uning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va texnologik yangilanishni rag'batlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [2]. Mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyalari doirasida sanoat ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirish hamda mintaqalar sanoat salohiyatidan barqaror foydalanishni



ta'minlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar tahlili mintaqalar kesimida sanoat ishlab chiqarishini yanada muvozanatli rivojlantirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish hamda kichik tadbirkorlikning sanoatdagi ishtirokini kengaytirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda [3].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish nafaqat qo'shimcha resurslarni jalb qilish, balki ularni ilmiy asoslangan usullar, ma'lumotlarni qamrab oluvchi tahlil (DEA), Malmquist mahsuldorlik indeksi, statistik guruhlash va boshqa zamonaviy metodlar yordamida baholash orqali ham amalga oshiriladi [4]. Xitoy, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlar mintaqaviy sanoat samaradorligini oshirishda texnologik heterogenlik, innovatsion salohiyat va infratuzilma sifatining muhim rol o'ynashini isbotlagan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston mintaqalarida sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligining hozirgi holatini kompleks tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini ilmiy asoslash zarurati mavjud. Ushbu masalaning yetarlicha o'rganilmaganligi, ayniqsa, mintaqalar kesimidagi tarkibiy va texnologik tahlilning kamligi tadqiqot mavzusini tanlashga sabab bo'ldi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston mintaqalarida sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligining hozirgi holatini baholash uchun kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Birinchidan, statistik tahlil metodi qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy press-relizlari (2024–2025-yillar), Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari statistika boshqarmalarining hududiy ma'lumotlari o'rganildi va tizimlashtirildi. Ikkinchidan, dinamik tahlil metodi yordamida sanoat ishlab chiqarishi hajmining yillar kesimidagi o'zgarish sur'atlari (fizik hajm indeksi) baholandi. Uchinchidan, tarkibiy (struktura) tahlil metodi qo'llanilib, sanoat mahsulotining tarmoqlar (qayta ishlash, tog'-kon, energetika, suv ta'minoti) hamda texnologik daraja (yuqori, o'rta-yuqori, o'rta-past, past texnologiyali) bo'yicha ulushi hisoblab chiqildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekiston bo'yicha olingan natijalar so'nggi besh yil (2021–2026-yillar) mobaynida chop etilgan xalqaro ilmiy nashrlarda, xususan, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari mintaqalarida o'tkazilgan Data Envelopment Analysis (DEA), Malmquist mahsuldorlik indeksi va panel regressiya usullariga asoslangan tadqiqotlar bilan solishtirildi. Bu O'zbekiston sanoat salohiyati samaradorligini baholashning zamonaviy xalqaro yondashuvlari kontekstida tushunish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–fevral oylarida respublika bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi 122,2 trln so'mni tashkil etib, fizik hajm indeksi 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,0 foizga teng bo'ldi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 3 287,2 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 103,8 foizga yetdi [6]. Bu ko'rsatkichlar mintaqalar kesimida sezilarli darajada farqlanadi: ayrim hududlarda jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa, boshqa mintaqalarda bu ko'rsatkich o'rtachadan past darajada qolmoqda. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi tarkibiy tuzilishi keltirilgan [7]. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qayta ishlash sanoati umumiy sanoat ishlab chiqarishining ustun qismini tashkil etadi, tog'-kon sanoati va energetika tarmoqlari esa nisbatan kichik ulushga ega. Ushbu tarkibiy nisbat mamlakat sanoatining xomashyoni qayta ishlashga yo'naltirilgan modelga tobora yaqinlashayotganidan dalolat beradi (1-jadval) [8].

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining tarmoq tarkibi (2024–2025-yillar yanvar–oktabr davri)

Sanoat tarmog'i	Ishlab chiqarish hajmi, trln so'm	Umumiy hajmdagi ulushi, %
Qayta ishlash sanoati	741,5	85,6
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	63,3	7,3
Elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	56,1	6,5
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	4,9	0,6



Sanoat mahsulotining texnologik darajasi bo'yicha tarkibi mintaqaviy sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. 2-jadvalda 2024 va 2025-yillarning yanvar–fevral oylari uchun qayta ishlash sanoati mahsulotining texnologik daraja bo'yicha taqsimoti keltirilgan. Ma'lumotlar yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining nihoyatda past ekanligini, past va o'rta-past texnologiyali mahsulotlar ulushi esa ustunlik qilishini hamda yildan yilga bu tendensiya kuchayib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval) [9].

2-jadval. Qayta ishlash sanoati mahsulotining texnologik daraja bo'yicha tarkibi, %

Texnologik daraja	2024-yil yanvar–fevral, %	2025-yil yanvar–fevral, %
Yuqori texnologiyali (high-tech)	1,3	1,0
O'rta-yuqori texnologiyali (medium-high-tech)	25,3	21,0
O'rta-past texnologiyali (medium-low-tech)	38,1	40,2
Past texnologiyali (low-tech)	35,2	37,8

Qo'shimcha hududiy ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent viloyatida 2024-yil yanvar–iyul oylarida 70 678,1 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan bo'lib, fizik hajm indeksi 106,9 foizni tashkil etgan; shundan qayta ishlash sanoati ulushi 83,3 foizga (58 849,4 mlrd so'm) teng bo'lgan. Respublika miqyosida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 2025-yil yanvar–fevral oylarida 29,9 trln so'mni, ya'ni umumiy sanoat ishlab chiqarishining 24,5 foizini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davridagi 19,9 foizdan yuqori bo'lgan [10]. Shuningdek, kichik biznes tomonidan yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning 13,4 foizi sanoat tarmog'iga to'g'ri kelgan. Ushbu raqamlar kichik va o'rta biznesning sanoat salohiyatini oshirishdagi ahamiyati yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi.

Olingan natijalar O'zbekiston mintaqalarida sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligi borasida bir qator muhim tendensiyalarni ochib beradi. Birinchidan, qayta ishlash sanoatining umumiy sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85 foizdan yuqori bo'lishi, bir tomondan, mamlakat sanoatining xomashyo eksportidan qayta ishlangan mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, ushbu tarkib ichida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lmagan tarmoqlarning ustunligi masalasini keskinlashtiradi [11]. 2-jadval ma'lumotlari yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi atigi 1,0 foizni tashkil etishini, o'rta-past va past texnologiyali mahsulotlar ulushi esa jami 78 foizdan oshishini ko'rsatadi [12].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy sanoat samaradorligini oshirishda texnologik yangilanish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xususan, Xitoy sanoat tarmog'ida 31 viloyat va 4 makromintaqa bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda SBM-DEA modeli, meta-texnologik tahlil va Malmquist–Lyuenger indeksi yordamida iqtisodiy samaradorlik, texnologik heterogenlik va umumiy faktor mahsuldorligining o'zgarishi baholangan bo'lib, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanayotgan mintaqalarda samaradorlikning yuqori darajaga erishgani aniqlangan [13]. Xuddi shunday, patent-intensiv tarmoqlarda innovatsion, kapital, kadrlar va ishlab chiqarish zanjirlarining integratsiyasini o'rganish natijasida texnologik innovatsion samaradorlikning tarmoqlar kesimida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi isbotlangan. Ushbu xulosalar O'zbekiston sanoat tarmog'ida texnologik rivojlanishni jadallashtirish va hududlar salohiyatidan yanada samarali foydalanish istiqbollarini asoslashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [14].

Energiya samaradorligi masalasi ham mintaqaviy sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligining muhim tarkibiy qismidir. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishda robot zichligining ortishi energiya sarfini kamaytirishi mumkin, biroq raqamli va avtomatlashtirilgan texnologiyalarga investitsiyalar ba'zan qaytma ta'sir tufayli energiya sarfini oshirishi ham mumkin, bu esa energiya samaradorligini oshirishning bir qiymatli jarayon emasligini ko'rsatadi [15]. Bunday xulosalar O'zbekiston sanoatida energiya va resurs samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda faqat texnologik yangilanishga emas, balki boshqaruv va monitoring tizimlarini takomillashtirishga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston mintaqalarida sanoat salohiyatidan foydalanish samaradorligining hozirgi holati bir qator ijobiy tendensiyalarni namoyon etayotganini ko'rsatdi. Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda hamda bu o'sish qayta ishlash sanoatining an'anaviy, past va o'rta-past texnologiyali tarmoqlari rivojlanishi bilan bir qatorda yuqori texnologiyali yo'nalishlarni kengaytirish uchun ham qulay asos yaratmoqda.



Yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining izchil oshirish imkoniyatlari mavjudligi mamlakat sanoat salohiyatidan foydalanishning innovatsion asoslarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatdi. Xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, mintaqaviy sanoat samaradorligini oshirishda texnologik heterogenlikni kamaytirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va energiya samaradorligini oshirish muhim omillar hisoblanadi, DEA va Malmquist indeksiga asoslangan metodlar esa samaradorlikni miqdoriy baholashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu xulosalar O'zbekiston sharoitida ham amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sanoat korxonalarida samarali korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirishda Sanoat 4.0 texnologiyalarining o'rni, Scientific Journal of "International Finance & Accounting", no. 6, Dec. 2024.
2. N. Sh. Srajdinova, "Mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari," Innovations in Science and Technologies, vol. 3, no. 3, 2026.
3. D. M. Shaxidova, "Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlarning ahamiyati," Innovations in Science and Technologies, vol. 2, no. 6, 2025.
4. F. R. Suleymanov, "O'zbekiston iqtisodiy o'sish jarayonida infratuzilma tizimining rivojlanish omili sifatidagi roli va ta'siri," Innovations in Science and Technologies, vol. 2, no. 11, 2025.
5. U. T. Fayzullayev, "Kichik va o'rta biznes subyektlarida investitsiya samaradorligini oshirishning nazariy asoslari," Innovations in Science and Technologies, 2025.
6. "Nazarov N. O'zbekiston erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik subyektlarining samaradorligi statistik ko'rsatkichlari tahlili // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – 12-jild, 6-son. – B. 57–63. – DOI: 10.55439/EIT/vol12_iss6/612.
7. Mamatkulova N. Sanoat korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish va iqtisodiy samaradorligini oshirish // Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and Innovations. – 2022. – 2-jild, 6-son. – B. 26–34. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol2-iss6-pp26-34.
8. Musurmonova M. O. Korxona moliyaviy salohiyatini baholashning statistik tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – 3-jild, 3-son, navbatdan tashqari son. – B. 370–376. – DOI: 10.5281/zenodo.15494348.
9. Nurmatov M. M. Sanoat korxonalarida aylanma mablag'lardan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2024. – 2-jild, 1-son. – B. 317–321. – DOI: 10.55439/GED/vol1_iss1/a814.
10. "Economic efficiency evaluation, regional technological heterogeneity, and total factor productivity change in the industrial sector of China," Humanities and Social Sciences Communications, 2025.
11. Y. Zhang et al., "Evaluation of Technological Innovation Efficiency in the Integration of Innovation, Capital, Talent, and Industry Chains in Patent-Intensive Industries," Managerial and Decision Economics, 2026.
12. "Industrial energy use, efficiency, and savings: methods for quantitative analysis," Energy Efficiency, Springer, 2025.
13. "Enhancing Operational Efficiency in Industrial Systems: A DEA-Grey Integration," IEEE Journals & Magazine, 2024.
14. "Estimating the Innovation Efficiency of the Artificial Intelligence Industry in China Based on the Three-Stage DEA Model," IEEE Access / IEEE Journals & Magazine, 2023.
15. International Energy Agency, "Energy Efficiency 2024," IEA Report, Paris, France, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 8/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>